

HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATIDA MAXSUS XIZMAT VAZIFALARINI BAJARISH LAYOQATINI HUQUQIY TA'MINLASH: XORIJIY STRATEGIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR



MUHAMADOV
Ulug'bek Umedjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Huquq-tartibot va mudofaa tizimi xodimlarining jismoniy shayligi milliy barqarorlikning strategik ustunidir. BMT va NATO kabi xalqaro tuzilmalar tajribasi shuni tasdiqlaydiki, shaxsiy tarkibning jismoniy va psixologik chidamliligi ijtimoiy xavfsizlikni kafolatlovchi fundamental omil hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda ekstremal vaziyatlarda xizmat samaradorligini maksimal oshirish maqsadida, rivojlangan davlatlarning funksional tayyorgarlik modellarini milliy ta'lim va amaliyot tizimiga transformatsiya qilish zarurati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tayyorgarlik, huquq-tartibot organlari, harbiy xizmatchilar, xalqaro tajriba, NATO, BMT, funksional chidamlilik, xavfsizlik siyosati.

Аннотация. Физическая готовность сотрудников правоохранительных органов и оборонных структур является стратегическим столпом национальной стабильности. Опыт международных организаций, таких как ООН и НАТО, подтверждает, что физическая и психологическая устойчивость личного состава выступает фундаментальным фактором обеспечения общественной безопасности. В данном исследовании обоснована необходимость трансформации моделей функциональной подготовки развитых стран в национальную систему образования и практики с целью максимизации эффективности службы в экстремальных условиях.

Ключевые слова: физическая подготовка, правоохранительные органы, военнослужащие, международный опыт, НАТО, ООН, функциональная выносливость, политика безопасности.

Abstract. An analysis of the global security architecture demonstrates that the physical readiness of law enforcement and defense personnel is a strategic pillar of national stability. The experience of international organizations such as the UN and NATO confirms that the physical and psychological resilience of personnel serves as a fundamental factor in guaranteeing public safety. This study justifies the necessity of transforming the functional training models of developed nations into the national education and practice systems to maximize operational efficiency in extreme conditions.

Keywords: Physical training, law enforcement agencies, military personnel, international experience, NATO, UN, functional resilience, security policy.

Zamonaviy globallashuv va xavfsizlik tahdidlarining transformatsiyasi sharoitida huquq-tartibot organlari va harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi tizimi milliy xavfsizlik arxitekturasining strategik komponenti sifatida namoyon bo'lmoqda. Xalqaro amaliyotning ko'rsatishicha, shaxsiy tarkibning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish nafaqat jismoniy sifat-

larni shakllantirish, balki davlat xavfsizlik siyosatining universal va barqaror yo'nalishi sifatida talqin etilmoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterrishning global xavfsizlikka bag'ishlangan ma'ruzalarida ta'kidlanishicha, xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy-ruhiy barqarorligi jamoat tartibini saqlash va tinchlik o'rnatish

amaliyotlarining fundamental kafolati hisoblanadi. Xususan, BMT doirasida jismoniy tayyorgarlikning yagona xalqaro standartlarini ishlab chiqish va ularni milliy xavfsizlik tizimlariga institutsional darajada integratsiya qilish masalasi global xavfsizlik siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan [1].

Shimoliy Atlantika Alyansi (NATO) tomonidan qo'llanilayotgan jismoniy tayyorgarlik modellari o'zining yuqori samaradorligi va ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. Tashkilot Bosh kotibi Yens Stoltenberg 2022-yilgi sammit doirasida jismoniy chidamlilik va funksional tayyorgarlik harbiy quvvatning barqarorligini ta'minlovchi eng muhim omil ekanligini qayd etadi. NATO standartlariga muvofiq, tayyorgarlik jarayoni quyidagi uchta asosiy yo'nalishni qamrab oladi:

1. *Operatsion harakatchanlik* – ekstremal va yuqori dinamik muhitda taktik vazifalarni samarali bajarish qobiliyati.

2. *Psixofiziologik reziliyents* – yuqori jismoniy yuklamalar sharoitida stressga qarshi barqarorlikni saqlash.

3. *Texnologik monitoring* – innovatsion texnologiyalar yordamida xizmatchilarning funksional salohiyatini real vaqt rejimida baholash va korrektsiya qilish tizimi [2].

Yevropa Ittifoqining xavfsizlik va mudofaa siyosati doirasida esa xizmatchilar uchun yagona jismoniy tayyorgarlik mezonlarini joriy etish zarurati Yevropa Kengashi qarorlarida alohida ifoda etilgan. Mazkur modelda jismoniy tayyorgarlik nafaqat sog'lom turmush tarzini ta'minlash, balki aholi bilan samarali muloqot olib borish va huquq-tartibot organlariga nisbatan ishonch muhitini mustahkamlash vositasi sifatida ham talqin qilinadi [3].

AQSH amaliyotida "Functional Fitness" dasturlari markaziy o'rin tutadi. Sobiq Prezident Barak Obama milliy xavfsizlik strategiyasi to'g'risidagi nutqlaridan birida xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini davlat xavfsizligining asosiy ustunlaridan biri sifatida qayd etgan. AQSH amaliyotida xizmatchilar muntazam ravishda kompleks testlardan o'tkaziladi va baholash jarayonlari innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshiriladi [4].

Sharq mamlakatlari tajribasida esa milliy va ma'naviy omillar ustuvor. Xitoyda milliy sport turlari politsiya va harbiy xizmatchilar mashg'ulot das-

turlariga integratsiya qilingan bo'lsa, Yaponiyada jismoniy chidamlilik ma'naviy intizom bilan uyg'un holda tarbiyalanishi talab etiladi. Bosh vazir Shinzo Abe bu masalani mamlakat xavfsizligini ta'minlashning uzviy qismi sifatida ta'riflagan [5].

Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar tajribasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va harbiy tuzilmalar xodimlarining xizmatga layoqatlilik salohiyatini oshirish maqsadida jismoniy tayyorgarlik tizimini tashkil etishning turli samarali modellari shakllantirilgani va ular amaliy jihatdan keng qo'llanilmoqda.

AQSH modeli. AQSHda huquq-tartibot organlari va harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarlik tizimi klassik sport normativlari bilan cheklanib qolmay, balki xizmatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan real va ekstremal sharoitlarga mos holda tashkil etilgan. Xususan, FBR akademiyasida hamda politsiya tayyorlov markazlarida "Functional Fitness" dasturlari asosida mashg'ulotlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular xizmatchining chidamliligi, harakatchanligi va psixologik barqarorligini birgalikda rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu dasturlar orqali xizmatchilarning kundalik sog'lom turmush tarzi va xizmatga yaroqlilik holati uyg'unlikda ta'minlanishi mumkin [6].

Shuningdek, AQSH amaliyotida jismoniy tayyorgarlikni baholashning ilmiy jihatdan asoslangan test tizimlari mavjud. Masalan, Physical Fitness Test (PFT) orqali xizmatchilarning yugurish, turli to'siqlarni yengib o'tish, uzoq masofaga chidamlilik va stress holatida harakat qilish qobiliyati aniqlanadi. Bunday testlar doimiy ravishda o'tkazilib, xodimlarning jismoniy holati innovatsion simulyatorlar va raqamli monitoring vositalari yordamida xolis baholanadi [7].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQSH modelida xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi sog'lom turmush tarzi bilan uyg'un holda rivojlantiriladi. Xizmatchilar uchun taomlanish dasturlari (Nutrition Programs), stressni boshqarish kurslari (Stress Management) va psixologik barqarorlik mashg'ulotlari (Mental Resilience Training) keng joriy etilgan. Ushbu yo'nalishlar jismoniy tayyorgarlikning faqat sport mashg'ulotlari bilan emas, balki shaxsiy turmush tarzi va kasbiy faoliyat bilan uzviy uyg'unligini ta'minlaydi [8].

Davlat siyosati nuqtai nazaridan qaranganda, AQSHda jismoniy tayyorgarlik milliy xavfsizlik strategiyasining uzviy qismi sifatida baholanadi. Masalan, Barak Obama o'z ma'ruzalarida politsiya va harbiy xizmatchilarning jismoniy va psixologik chidamliligi davlat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor ustunlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlagan. Bu holat jismoniy tayyorgarlik tizimiga strategik ahamiyat berilganini ko'rsatadi [9].

Germaniya modeli. Germaniya huquq-tartibot organlari va harbiy tuzilmalarida jismoniy tayyorgarlik tizimi qat'iy me'yoriy baza va amaliy mashg'ulotlarga asoslangan bo'lib, uning markazida xizmatchilarning ekstremal sharoitlarda harakatchanligi, stressga chidamliligi va jamoaviy intizomi turadi. Xizmatchilar muntazam ravishda simulyativ mashg'ulotlarda ishtirok etishadi, ularda yong'in, portlash yoki terroristik hujum kabi favqulodda vaziyatlar sun'iy sharoitda yaratilib, xodimlarning to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyati ham baholanadi. Bu holat Germaniya modelini faqat jismoniy mashqlar emas, balki psixologik chidamlilik va ekstremal vaziyatlarda kasbiy harakatchanlikni uyg'unlashtirgan tizim sifatida namoyon qiladi [10].

Shuningdek, Germaniyada ichki ishlar organlari va Bundesver qo'shinlari uchun yagona jismoniy tayyorgarlik standartlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular *“Polizeidienstliche Standards”* hamda harbiy nizomlarda mustahkamlangan. Ushbu me'yorlar xizmatchidan yugurish, kuch, harakatchanlik, to'siqlarni yengib o'tish va suzish kabi ko'rsatkichlarni doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Bunda asosiy e'tibor xizmatchining uzoq vaqt davomida ruhiy va jismoniy barqarorlikni saqlashiga qaratilgan [11].

Germaniya tajribasida jismoniy tayyorgarlikning psixologik tayyorgarlik bilan uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mashg'ulotlarda zamonaviy simulyatorlar va raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi, bu esa xizmatchilarning aniq vaziyatlarga tayyorgarligini kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, stress-bardoshlik va psixologik barqarorlik xizmat samaradorligini belgilaydigan hal qiluvchi omillardan hisoblanadi [12].

Shu bilan birga, Germaniya politsiya akademiyalari va harbiy qismlarida xizmatchilar uchun

sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish muhim vazifa sifatida belgilangan. Mashg'ulotlar xizmat paytidan tashqari vaqtda ham muntazam davom ettiriladi, sport to'garaklari orqali chidamlilik va harakatchanlik doimiy ravishda saqlanib qolinadi. Bu holat xizmatchining xizmatga doimiy ravishda tayyor holatda bo'lishini ta'minlaydi [13].

Xulosa qilib aytganda, Germaniya modeli jismoniy tayyorgarlik tizimini tashkil etishda qat'iy me'yoriy baza, ekstremal sharoitlarda simulyativ mashg'ulotlar, psixologik chidamlilikni shakllantirish va sog'lom turmush tarzini ta'minlash kabi yo'nalishlarga tayanadi. Bu holat xodimlarning xizmatga layoqatlilik salohiyatini oshirish bilan birga, ularning davlat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashda samarali ishtirokini kafolatlaydi.

Yaponiya modeli. Yaponiya huquq-tartibot organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining jismoniy tayyorgarlik tizimi faqatgina jismoniy ko'rsatkichlarni oshirishga emas, balki ma'naviy intizom va axloqiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgani bilan ajralib turadi. Bu tizimda milliy an'anaviy sport turlari – aykido, kendo va dzyudo kabi yo'nalishlar xizmatchilar tayyorgarligi dasturlariga integratsiya qilingan bo'lib, ular orqali xodimlar kuch, chidamlilik va harakatchanlikka ega bo'lish bilan bir qatorda, ichki intizom, mas'uliyat va burch hissini ham mustahkamlaydilar [14].

Shu bilan birga, Yaponiya politsiya akademiyalarida va Mudofaa kuchlarida amalga oshiriladigan mashg'ulotlarda jismoniy tayyorgarlik doimo psixologik tayyorgarlik bilan uyg'un tarzda olib boriladi. Xizmatchilar mashg'ulot jarayonida nafaqat jismonan, balki ruhan ham baholanadi, ularning stressga chidamliligi, qaror qabul qilish qobiliyati va jamoaviy hamjihatligi tekshiriladi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu holat xizmatchining favqulodda vaziyatlarda barqaror bo'lishini va aholi bilan samarali muloqot qila olishini ta'minlaydi [15].

Yaponiya tajribasining yana bir muhim jihati shundaki, jismoniy tayyorgarlik nafaqat xizmat majburiyati, balki hayot falsafasi sifatida qaraladi. Mashg'ulotlar xizmatchilar turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirilgan, natijada ularda sog'lom hayot tarzi va kasbiy intizom uyg'unlashadi. Ilmiy jihatdan bu holat xizmatchining uzoq muddatli kasbiy samaradorligini ta'minlaydi va uning shaxsiy barqarorligini kuchaytiradi [16].

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya modeli jismoniy tayyorgarlik tizimini tashkil etishda an'anaviy sport turlari, ma'naviy intizom, psixologik chidamlilik va sog'lom turmush falsafasini uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Bu model xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy jihatdan tayyorligini ta'minlab, mamlakat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiya modeli jismoniy tayyorgarlik tizimini tashkil etishda **an'anaviy sport turlari, ma'naviy-axloqiy intizom, psixologik chidamlilik va sog'lom turmush tarzini** uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Bu holat xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy jihatdan tayyor bo'lishini ta'minlab, mamlakat xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Rossiya modeli. Rossiya Federatsiyasida huquq-tartibot organlari xodimlari va harbiy xizmatchilarining jismoniy tayyorgarlik tizimi davlat xavfsizligi hamda jamoat tartibini ta'minlashning muhim omili sifatida qaraladi. Bu tizim qat'iy normativ-huquqiy bazaga asoslanib, xizmatchilarning jismoniy chidamliligi, harakatchanligi va ekstremal sharoitlarda kasbiy samaradorligini ta'minlashga yo'naltirilgan. Masalan, Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi va Rosgvardiya tizimida har bir xizmatchi yil davomida belgilangan normativ testlardan o'tishi shart bo'lib, ular orqali jismoniy va funksional tayyorgarlik darajasi baholanadi [17].

Rossiya modelining muhim jihati shundaki, jismoniy tayyorgarlik sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash vositasi emas, balki xizmatga shaylik va kasbiy samaradorlik mezon sifatida talqin qilinadi. Xizmatchilar muntazam ravishda simulyativ mashg'ulotlarda ishtirok etib, terrorism, ommaviy tartibsizlik va favqulodda holatlarda harakat qilish ko'nikmalarini takomillashtiradilar. Bu orqali ularning stressga chidamliligi va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati shakllanadi [18].

Shuningdek, Rossiyada jismoniy tayyorgarlik jarayoniga innovatsion texnologiyalar ham keng jalb etilmoqda. Xizmatchilarning fiziologik holati tibbiy monitoring vositalari va zamonaviy trenajyorlar orqali nazorat qilinadi. Ichki ishlar akademiyalari va harbiy universitetlarda jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yo'lga qo'yilgan bo'lib,

ular xizmatchilarning funksional salohiyatini baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan [19].

Rossiya modelida jismoniy tayyorgarlik ma'naviy va g'oyaviy tarbiya bilan uyg'un holda tashkil etiladi. Mashg'ulotlar jarayonida xizmatchilarda davlatga sadoqat, vatanparvarlik va jamoaviy hamjihatlik hissi mustahkamlanadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu holat xizmatchining jismoniy tayyorgarligi bilan ma'naviy barqarorligi o'rtasida uyg'unlikka erishishga xizmat qiladi, natijada xizmat samaradorligi va davlat xavfsizligi yuqori darajada ta'minlanadi [20].

Xulosa qilib aytganda, Rossiya modeli jismoniy tayyorgarlik tizimini tashkil etishda qat'iy normativ baza, kompleks testlar, simulyativ mashg'ulotlar, innovatsion texnologiyalar va ma'naviy-g'oyaviy tarbiyani uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi. Bu model xizmatchilarning jismoniy va ma'naviy tayyorgarligini ta'minlash orqali ularning davlat xavfsizligi va jamoat tartibini saqlashdagi kasbiy samaradorligini oshiradi.

Maqolaning boshida ko'rib o'tganimiz **NATO modelida** xizmatchilar muntazam ravishda standartlashtirilgan testlardan o'tkaziladi. Ushbu testlar yugurish, kuch mashqlari, ekstremal sharoitlarda harakatchanlik va stressga chidamlilik mezonlarini qamrab oladi. Testlarning yagona tartibda o'tkazilishi NATOga a'zo davlatlar armiyalari va politsiya tizimlari uchun umumiy tayyorgarlik darajasini belgilaydi va alohida xizmatchilar imkoniyatlarini xolis baholash imkonini beradi [21].

Shu bilan birga, NATO tajribasida zamonaviy simulyatorlar, raqamli monitoring texnologiyalari va maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlari jismoniy tayyorgarlik tizimiga integratsiya qilingan. Masalan, **Stress Inoculation Training** dasturlari xizmatchilarning ruhiy chidamliligini kuchaytiradi va jamoaviy hamjihatlik sharoitida samarali harakat qilish qobiliyatini oshiradi [22].

Ilmiy nuqtai nazardan, NATO modeli jismoniy tayyorgarlikni faqat individual darajada emas, balki jamoaviy samaradorlik mezon sifatida ham baholaydi. Mashg'ulotlar jarayonida xizmatchilarning o'zaro hamkorligi, ekstremal vaziyatlarda bir-birini qo'llab-quvvatlashi va jamoaviy intizomga amal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu holat umumiy mudofaa va xavfsizlik tizimi barqarorligini ta'minlaydi [23].

NATO modeli jismoniy tayyorgarlik tizimini tashkil etishda **yagona standartlar, innovatsion texnologiyalar, psixologik chidamlilik dasturlari va jamoaviy hamjihatlik** tamoyillariga asoslanadi. Ushbu model xizmatchilarning shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga, umumiy mudofaa tizimi samaradorligini ta'minlovchi ilmiy asoslangan yondashuv hisoblanadi.

Yuqorida bayon etilgan xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, ichki ishlar organlari xizmatchilari jismoniy tayyorgarligini tashkil etish va baholashda aniq huquqiy me'yorlar, innovatsion baholash usullari hamda rag'batlantirish tizimini huquqiy jihatdan mustahkamlash xizmat samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, AQSH Federal qidiruv byurosi (FBI) akademiyasida joriy etilgan **“Functional Fitness”** dasturida xizmatchilarning chidamliligi, stressga barqarorligi va kasbiy vazifalarni bajarishga tayyorligini baholash mezonlari normativ jihatdan tartibga solingan [24]. Yaponiya Milliy politsiya agentligi esa jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini ma'naviy intizom bilan uyg'unlashtirishni huquqiy asos sifatida belgilaydi [25]. Shu bilan birga, Xitoy Ichki ishlar universiteti amaliyotida milliy sport turlari elementlarini huquq-tartibot organlari tayyorgarlik dasturlariga integratsiya qilish orqali huquqiy va ma'naviy omillar uyg'unligi ta'minlanadi [26].

NATO va Rossiya tajribalarida esa xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini baholash jarayoni qonunchilikda alohida tartib bilan belgilanib, innovatsion simulyatorlar, elektron platformalardan foydalanish huquqiy asosga ega. Xususan, NATOning **Training and Education Command** hisobotlarida xizmatchilarning tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniq hisoblash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qonun bilan ta'minlanganligi qayd etilgan [27]. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qabul qilingan buyruqqa ko'ra, xizmatchi jismoniy tayyorgarlikda yuqori natijalarga erishgan taqdirda, uni *“navbatdan tashqari maxsus unvonlar”* bilan taqdirlash huquqiy norma sifatida mustahkamlangan [28].

Mazkur ilmiy tahlillardan kelib chiqib, bugungi kunda milliy qonunchilik bazasini xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish davr talabi ekanligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekiston

Respublikasining *“Ichki ishlar organlari to'g'risida”*-gi qonunida xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi umumiy vazifa sifatida belgilangan bo'lsa-da, aniq standartlar va baholash mexanizmlari to'liq ochib berilmagan. Shu nuqtai nazardan, ilmiy tahlildan kelib chiqib, qonunning quyidagi moddalariga qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq:

birinchidan, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 16-moddasi (*Ichki ishlar organlari majburiyatlari*)ga qo'shimcha – taklif etilayotgan normani qonunchilikka kiritish – xizmatchining jismoniy tayyorgarligini faqat umumiy sport ko'rsatkichlari asosida emas, balki funksional testlar va psixologik barqarorlik mezonlari asosida baholash imkonini yaratadi. AQSH tajribasida, xususan, U.S. Department of Justice tomonidan ishlab chiqilgan *Law Enforcement Fitness Standards* dasturi politsiya xodimlarining xizmatga layoqatlilikini obyektiv baholashda kompleks fizik va psixofiziologik testlardan foydalanishni nazarda tutadi [29]. Bu tizim xizmat samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi;

ikkinchidan, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 32-moddasi (*Ichki ishlar organi xodimini xizmatdan bo'shatishtish*)ga qo'shimcha – Yaponiya modeli asosida jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarini ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturlari bilan uyg'unlashtirish, ichki ishlar xodimlarining xizmatga yaroqlilik darajasini faqat jismoniy jihatdan emas, balki ma'naviy jihatdan ham mustahkamlaydi. Japanese National Police Agencyning *“Police Service System”* dasturida xizmatchilar uchun jismoniy mashg'ulotlar hamda ma'naviy intizom uyg'unligi huquq-tartibot tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash omili sifatida belgilangan [30]. Shuning uchun mazkur qo'shimcha milliy qonunchilikda xodimlarni tarbiyalashning zamonaviy modelini yaratishga xizmat qiladi;

uchinchidan, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26-moddasi (*Ichki ishlar organlaridagi xizmatga qabul qilish*)ga qo'shimcha – zamonaviy sharoitda xodimlarning tayyorgarligini innovatsion texnologiyalar asosida baholash – zarur talab hisoblanadi. NATO tajribasida qo'llaniladigan *Simulation Training Systems* hamda Rossiya IIV akademiyasida yo'lga qo'yilgan elektron platforma orqali

jismoniy testlar xodimlarning xizmatga tayyorgarlik darajasini tezkor va xolis baholash imkonini yaratadi [31]. Shu bois ushbu normani milliy qonunchilikka kiritish O'zbekiston ichki ishlar organlarining raqamli islohotlar bilan uyg'unligini ta'minlaydi;

to'rtinchidan, “Ichki ishlar organlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi **qonunining 29-moddasi** (*Ichki ishlar organlari xodimlarining maxsus unvonlari*)ga **qo'shimcha** – ko'p yillik tajribaga ega va jismoniy tayyorgarlikda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan xizmatchilarni navbatdan tashqari maxsus unvonlar bilan taqdirlash masalasi Rossiya IIVning amaldagi buyruqlari orqali samarali amalga oshirilmoqda. Bu uslub xodimlarning shaxsiy motivatsiyasini oshirib, ichki tizimda adolatli baholash va rag'batlantirish muhitini yaratadi. Milliy qonunchilikka bunday qo'shimchani kiritish xizmatchilarning uzoq muddatli xizmatda fidoyilik va kasbiy samaradorlikka intilishini kuchaytiradi.

Mazkur takliflarning qonunchilikka integratsiya qilinishi nafaqat ichki ishlar organlari xodimlarining jismoniy tayyorgarligini samarali tashkil etishga, balki butun tizim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy tahlil asosida kutiladigan natijalar:

birinchidan, jismoniy tayyorgarlikka oid aniq standartlar va funksional mezonlarni qonun darajasida belgilash xizmatchilarning xizmatga yaroqlilik darajasini *obyektiv baholash imkoniyatini* yaratadi. Bu esa subyektivlik holatlarini kamaytiradi, xizmatchilarning xizmatga doimiy tayyor holatda bo'lishini ta'minlaydi va ularning shaxsiy javobgarligini oshiradi;

ikkinchidan, NATO va Rossiya tajribasi asosida joriy etiladigan *innovatsion texnologiyalar*

orqali jismoniy tayyorgarlikni baholash tizimi xodimlarning funksional imkoniyatlari va stressga chidamliligini aniq o'lchashga xizmat qiladi. Bu orqali xodimlarning professional tayyorgarlik darajasi yuqori standartlarga moslashadi hamda ularning xizmat samaradorligi ortib boradi;

uchinchidan, Yaponiya va Xitoy amaliyotidan kelib chiqib, jismoniy mashg'ulotlarni ma'naviy-axloqiy tarbiya bilan uyg'un holda tashkil etish xodimlarning nafaqat jismonan, balki ma'nan barqaror bo'lishini ta'minlaydi. Natijada, ichki ishlar organlarida xizmat intizomi va kasbiy etika darajasi yuksaladi;

to'rtinchidan, Rossiya amaliyotiga xos tarzda ko'p yillik tajribaga ega xizmatchilarni navbatdan tashqari unvonlar va rag'batlantirish vositalari bilan taqdirlash tizimi xizmatchilarning mehnatini qadrlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, kadrlar o'rtasida *rag'batlanish motivatsiyasini kuchaytiradi*, xizmatda uzoq muddat qolish va tajribani avloddan-avlodga o'tkazish imkoniyatini oshiradi;

beshinchidan, taklif etilgan qo'shimchalar milliy qonunchilikning xalqaro standartlar bilan uyg'unligini ta'minlab, ichki ishlar organlarining *xalqaro nufuzini oshirish*, hamkorlik salohiyatini kengaytirish va huquqni muhofaza qilish sohasidagi zamonaviy talablarga moslashuvchanligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, takliflarni qonun normalariga integratsiya qilish natijasida ichki ishlar organlari tizimida *samaradorlik, intizom, innovatsionlik va xalqaro standartlarga moslik* ta'minlanadi. Bu esa jamoat xavfsizligini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega.

Foydalanilgan manbalar

1. United Nations Secretary-General António Guterres. Remarks on Peace and Security Challenges. UN Official Statements, 2021.
2. NATO Secretary General Jens Stoltenberg. Speech at the 2022 NATO Summit. NATO Official Website, 2022.
3. European Council. Conclusions on Security and Defence Policy. Official Journal of the European Union, 2020.
4. Obama, B. Remarks on the National Security Strategy. The White House Archives, 2016.
5. Shinzo Abe. Speech on Security and Discipline in Japan. – Tokyo, 2017.
6. FBI Academy. Physical Fitness Test Manual. Quantico, Virginia, 2020.
7. U.S. Department of Justice. Law Enforcement Training Standards. – Washington DC, 2019.
8. National Strength and Conditioning Association (NSCA). Functional Fitness for Law Enforcement. – Colorado Springs, 2018.

9. Barack Obama. National Security Strategy Remarks. Washington DC, 2015.
10. Bundesministerium des Innern. Polizeidienstliche Standards in Deutschland. – Berlin, 2019.
11. Bundeswehr. Training and Fitness Regulations for Military Personnel. – Berlin, 2020.
12. Klaus Weinbauer. Stressresistenz und Polizei: Wissenschaftliche Analysen. – Berlin, 2017.
13. Deutsche Hochschule der Polizei. Ausbildungskonzepte für Polizeibeamte. – Münster, 2018.
14. Shinzo Abe. Speech on Security and Discipline in Japan. – Tokyo, 2017.
15. Japan National Police Academy. Training Standards for Police Officers. – Tokyo, 2020.
16. Tanaka, H. Cultural Aspects of Police Training in Japan. Kyoto University Press, 2018.
17. МВД РФ. Нормативные требования по физической подготовке сотрудников органов внутренних дел. – Москва, 2018.
18. Росгвардия. Порядок проведения ежегодных нормативных испытаний по физической подготовке. – Москва, 2019.
19. Военный университет МО РФ. Программы физической подготовки военнослужащих в экстремальных условиях. – Москва, 2020.
20. Иванов С.А. Патриотическое воспитание и физическая культура в системе силовых структур России. – Москва, 2017.
21. NATO Allied Command Operations. Physical Fitness Testing Standards for Allied Forces. – Brussels, 2020.
22. NATO Training Mission. Resilience and Stress Inoculation Programs. – Mons, 2019.
23. European Security Journal. Collective Fitness and Security in NATO Structures. – London, 2021.
24. FBI Academy Fitness Program, Washington D.C., 2019.
25. Japan National Police Agency, “Discipline and Physical Preparedness Framework,” – Tokyo, 2020.
26. China Public Security University Training Manual. – Beijing, 2018.
27. NATO Training and Education Command Report. – Brussels, 2021.
28. Russian MVD Order No. 340 “On Special Ranks and Incentives”. – Moscow, 2017.
29. U.S. Department of Justice. Law Enforcement Fitness Standards. – Washington, 2020.
30. Japanese National Police Agency. Police Service System. – Tokyo, 2019.
31. NATO. Operational Training and Simulation Systems. – Brussels, 2021. // Электрон тестлаш платформаси ҳақида методик қўлланма. – М.: Россия ИИБ Академияси, 2020.



NARKOJINOYATLARGA QARSHI KURASHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI



AYNIDINOV
Sardor Ikrom o'g'li

*Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti xodimi,
Toshkent davlat universiteti magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon miqyosida global muammoga aylangan narkojinoyatlarga qarshi kurashish va giyohvandlikning oldini olish borasidagi xalqaro huquqiy asoslar hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari o'rganilgan. Tadqiqot doirasida AQSH va Kanadaning sohaga oid profilaktika va ilmiy yondashuvlari, Portugaliyaning insonparvarlikka asoslangan dekriminallashtirish modeli hamda Fransiyaning uyushgan narkobiznesga qarshi jazo muqarrarligini ta'minlash borasidagi qonunchilik islohotlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: narkojinoyat, giyohvandlik, Portugaliya modeli, AQSH, Fransiya, Kanada tajribasi, regressiv model, liberal model, barqaror model, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik, latentlik, jazoni og'irlashtiruvchi holatlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается международно-правовая база и передовой опыт зарубежных стран в борьбе с преступлениями, связанными с наркотиками, и предотвращении наркомании, которые стали глобальной проблемой во всем мире. В исследовании анализируются превентивные и научные подходы США и Канады к этой области, гуманитарная модель декриминализации Португалии и законодательные реформы Франции, направленные на обеспечение неизбежности наказания за организованный наркотрафик.

Ключевые слова: наркопреступления, наркомания, португальская модель, опыт США, Франции, Канады, регрессивная модель, либеральная модель, устойчивая модель, сотрудничество с правоохранительными органами, латентность, отягчающие обстоятельства.

Abstract. This article analyzes the international legal frameworks and advanced experiences of foreign countries in combating drug-related crimes and preventing drug addiction, which has become a global challenge. Within the framework of the study, the preventive and scientific approaches of the United States and Canada, the humane decriminalization model of Portugal, and the legislative reforms of France aimed at ensuring the inevitability of punishment for organized drug trafficking are comparatively examined.

Keywords: drug crimes, drug addiction, Portuguese model, experience of the USA, France, Canada, regressive model, liberal model, stable model, cooperation with law enforcement, latency, aggravating circumstances.

Dunyoda narkojinoyatlariga qarshi kurashish, jamiyatda giyohvandlikka qarshi immunitetni shakllantirish orqali inson salomatligini ta'minlashga obyektiv zarurat sifatida qaraladi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2025-yilgi hisobotiga ko'ra, 15–64 yosh oralig'ida bo'lgan har 17 kishidan bittasi oxirgi 12 oy davomida hech bo'lmaganda bir marotaba giyohvandlik vositalari yoki psixotrop moddalarni

iste'mol qilgan. Shuningdek, so'nggi 10 yilda dunyoda giyohvandlik vositalarini iste'mol qiluvchilar soni 22 foizga ortib, 316 mln. nafarga yetgan. Bu raqamlar giyohvandlik vositalarining yangi turlarini tadqiq etish, ularning “Darknet” va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish tizimini va normativ-huquqiy bazani takomillashtirishni taqozo etmoqda.